

“TEMURIYLAR RENESSANSI”

Turaqulova Zarina

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi

“Sohibqiron Amir Temurning shaxsi, uning avlodlari bo‘lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma’rifiy insoniyatning boyligidir”.

Islom Karimov

Annotatsiya: *Mazku maqolada jahon tarixida Amir Temurning tutgan o‘rni ahamiyati kompleks ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Shu bilan birga xalqaro munosabatlarga ko‘rsatgan ta’siri ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, madaniy jarayonlardagi roli ham keng yoritiladi. Shuningdek, Amir Temur joriy etgan boshqaruv va huquqiy tizim, savdo yo‘llari xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, shaharsozlik hamda ilm-fan taraqqiyotiga yo‘naltirilgan siyosatning jahon sivilizatsiyasi rivojidadagi o‘rni atroflicha asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, Jangovar salohiyat, ma’naviyat markazi, qo‘shin, odil hukumat, Tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy tizim, davlat arbobi, me’moriy bunyodkorliklar.*

Sohibqiron so‘zi bilan tigan olinadigan buyud ajdodimiz Amir Temur 1336 yil 9 aprel sanasida Kesh hozirgi Shahrizabz atrofidagi Xo‘ja Ilg‘or (Yakkabog‘) qishlog‘ida dunyoga kelgan. Rivoyatlarga ko‘ra, u tug‘ilgan paytda qo‘lida qip-qizil qon bo‘lagi bo‘lgan, sochlari esa oppoq — mo‘ysafid kishilarnikiga o‘xshash holatda edi; bunday fikrlar Chingizxon haqida ham aytib o‘tilgan.

Amir Temurning otasi Tarag‘ay doimiy ravishda xon ulusi bo‘lmish II daryosi qirg‘og‘iga chaqiriluvchi chig‘atoy beklari qurultoylarida ishtirok etgan. Amir Tarag‘ay Turmush og‘a barlosi amir Jakuning qiziga 1355 yilda uylanadi. Uning otasi amir Muhammad Tarag‘ay turkiy kelib chiqishga mansub barlos urug‘idan bo‘lib, Movarounnahrda o‘z mavqeiga ega, obro‘li va nufuzli shaxslardan biri sanalgan. Uning ajdodlari afsonaviy turkiy Alan quva nasliga borib taqaladi hamda Chig‘atoy ulusi saroyida hurmat-e‘tiborga sazovor kishilar qatorida bo‘lgan. Kesh va Nefes atrofidagi yerlar esa ularning mulki hisoblangan.

Amir Temurning hayoti va faoliyati, bir jihatdan uning jangovar salohiyati hamda harbiy muvaffaqiyatlari bilan, boshqa jihatdan esa davlatni boshqarish va madaniyatni rivojlantirish borasidagi yutuqlari bilan ajralib turadi. U o‘zining harbiy yurishlari orqali ko‘plab hududlarni birlashtirib, ularda barqarorlik va osoyishtalikni ta’minlashga erishgan.

Bu jarayonda u nafaqat harbiy strategiyalarni mohirona qo‘llagan, balki diplomatik aloqalarni ham yuqori darajada olib borgan. Uning davlat boshqaruvidagi salohiyati, boy madaniy merosi va harbiy zafarlari bugungi kunda ham yuqori baholanadi.

Amir Temur hukmronligi davrida boshqaruv tizimi markazlashgan holda tashkil etilib, iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyot uchun mustahkam asos yaratilgan. Ayniqsa,

Samarqand ilm-fan va madaniyatning yirik markaziga aylangan edi. Amir Temur kelajakni oldindan anglay oladigan mohir diplomat sifatida tarix sahifalarida chuqur iz qoldirgan. O'sha davrda dunyoning olis hududi sanalgan Ispaniya davlati (u paytda Amerika hali ochilmagan edi) hukmdori Enriko III, Fransiya qiroli Karl VI hamda Angliya qiroli Genrix VI saroylari bilan munosabatlar o'rnatish maqsadida elchilar jo'natgan, maktublar bitgan va javob xatlari qabul qilgan. Bundan tashqari, ispan, fransuz, ingliz, xitoy hamda boshqa xorijiy mamlakatlar vakillari ham uning saroyiga tez-tez kelib turgan.

“Amir Temur va adolat: Sohibqironning saltanat va bunyodkorlik falsafasi

“Odil podsho” tushunchasi qadim zamonlardan buyon mavjud bo'lib, xalq doimo ana shunday hukmdorni orzu qilib kelgan. Sohibqiron Amir Temur ham aynan shunday adolatli hukmdor bo'lishga intilgan. “Kuch — adolatda” degan hikmat Amir Temurning uzugiga o'yib yozilgan bo'lib, davlat muhrida ham o'z ifodasini topgan edi. “Mamlakat zulmga bardosh berishi mumkin, ammo adolatsizlikka toqat qilolmaydi”, deb ta'kidlaydi Amir Temur o'zining “Tuzuklar”⁵⁷ asarida. Bu fikr saltanatning asosiy shiori hisoblangan va Sohibqiron unga qat'iy amal qilgan. Adolatning qudrati shu darajada kuchli ediki, agar mamlakatda biror kishi boshiga oltin yoki kumush to'la idishni qo'yib, g'arbdan sharqqacha yo'l olsa ham, hech kim unga tegmas, undan biror narsa kamaymas edi. U har qanday vaziyatda, xoh o'z farzandlari bo'lsin, xoh oddiy fuqarolar — barchaga teng va xolis adolat bilan munosabatda bo'lgan.

Amir Temur bunyod etish va yaratish ruhiga ega xalq farzandi bo'lib, tabiatdan bunyodkorlikka moyil, benazir shaxs edi.

“...Buyurdimki, — deb yozadi Amir Temur “Tuzuklar”da, — katta-kichik har bir shahar va har bir qishloqda masjid, madrasa hamda xonaqohlar barpo etilsin, faqir va muhtojlar uchun langarxonalar (musofirxonalar) qurilsin, bemorlar uchun shifoxonalar tashkil etilib, ularda faoliyat yuritish uchun tabiblar tayinlansin. Har bir shaharda dorul-amorat (hukmdor saroyi) va dorul-adolat (adolat maskani) bunyod etilsin...” Aytish mumkinki, bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi. Amir Temur nafaqat o'z yurtida, balki boshqa mamlakatlarda ham qurilish va obodonchilik ishlarini amalga oshirgani buning yaqqol isbotidir. Dastlab saltanat poytaxti etib belgilangan Samarqandni u dunyoning eng go'zal va obod shaharlaridan biriga aylantirdi. Uning ulug'vorligini namoyon etish maqsadida esa atrofida Damashq, Bag'dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi mashhur shaharlar nomi bilan atalgan, bog'rog'larga burkangan qishloqlarni barpo qildirgan.

“Amir Temur va ilm-fanga bo'lgan e'tibor”

Ilm-fanga bo'lgan qiziqish Amir Temur xonadonidan boshlangan, desak yanada to'g'ri bo'ladi. Sohibqiron oilasida farzandlarga (shahzodalar va malikalarga) ilm-fanning turli yo'nalishlari bo'yicha chuqur saboqlar berilgan, ularning madrasalardagi tahsili muntazam davom ettirilgan. Masalan, Mironshoh Mirzo uchun Ibn al-Asirning “Al-komil fit-tarix” (“Mukammal tarix”⁵⁸) asari maxsus tarjima qilib berilgan edi.

⁵⁷ <https://www.temurtuzuklari.uz/oz>

⁵⁸ <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/345>

Sohibqironning sa'y-harakatlari natijasida uning avlodlari orasidan Muhammad Sulton, Ulug'bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kuchkunxixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi ko'plab shoirlar, olimlar, tarixchilar, xattotlar va ma'rifat homiylari yetishib chiqqan. Ular ilm-fan va ma'naviyatni qadrlaydigan yetuk shaxslar sifatida shakllanganlar. Aynan ularning sa'y-harakatlari tufayli madaniyatimiz yuksak bosqichlarga ko'tarilgan. Jumladan, Ulug'bek Mirzoning mashhur astronomiya maktabi Samarqandda shakllangan edi. O'zbekiston Amir Temur kabi buyuk tarixiy shaxsni qadrlash va uning merosini saqlash, tadqiq etish hamda targ'ib qilish borasida bir qator muhim tashabbuslarni amalga oshirdi:

Toshkentda Amir Temur sharafiga bag'ishlangan muzey ochilgan (1996).⁵⁹Bu muzey, Temuriylar davri tarixi va Amir Temurning hayoti, siyosati, ilm-fan hamda madaniyatga qo'shgan hissasini keng ommaga tanitadi.1996-yil — "Amir Temur yili"⁶⁰ deb e'lon qilindi – O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Sohobqironning 660-yilligi keng nishonlandi va shu munosabat bilan muzey bunyod etilish qarori qabul qilindi. O'zbekistonda temurshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilib, Amir Temur hayoti, davlat boshqaruvi, diplomatiya va harbiy faoliyatiga bag'ishlangan monografiyalar, kitoblar chop etilmoqda.

Amir Temur tomonidan joriy etilgan davlat boshqaruvi va huquqiy tartibot tizimi o'z davri uchun ilg'or bo'lib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilgan. Uning siyosati ichki barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy adolatni saqlash va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan edi. Ushbu omillar Temur saltanatining qisqa muddat ichida qudratli imperiyaga aylanishiga imkon yaratdi. Shuningdek, Amir Temurning jahon tarixidagi ahamiyati xalqaro munosabatlar va geosiyosiy jarayonlarga ko'rsatgan ta'sirida ham namoyon bo'ladi. Uning harbiy va diplomatik faoliyati Yevroosiyo hududidagi kuchlar muvozanatini o'zgartirib, ayrim yirik davlatlarning tarixiy rivojlanish yo'nalishiga bevosita ta'sir qilgan. Bu holat Amir Temur faoliyatini faqat mintaqaviy kontekstda emas, balki jahon tarixiy jarayonlari bilan bog'liq holda baholash zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Amir Temur nafaqat qudratli sarkarda, balki adolat va bunyodkorlikni o'z dasturi qilgan buyuk davlat arbobi sifatida tarix sahifalarida abadiy yashaydi. Uning merosi mintaqamiz va butun insoniyat uchun doimiy ilhom manbai bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. KarimovI.A.,Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, O'zbekiston nashriyoti, Toshkent,1998,176bet.
2. "Temur Tuzuklari", 1404 yil.
3. Riyosiddin Ali. "Hindiston Gazovati Kundaligi", 1401 yil.
4. Nizomiddin Shomiy. "Zafarnoma", 1404 yil.

⁵⁹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Temuriylar_tarixi_davlat_muzeyi

⁶⁰ <http://dd.gov.uz/uz/pages/1996>

5. (Ushbu ikki kitob Sohibqironning o'zi yozdirgan)
6. Rui Gonsales de Klavixo. "Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406)"
7. 2.AmirTemur,Temurtuzuklari,G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, Toshkent,1996,192bet.
8. 3.BartoldV.V.,Turkiston tarixi, Fannashriyoti, Toshkent, 1990,384bet